



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## STRATEGIES FOR ADAPTATION OF STUDENTS TO MARKET RELATIONS

Baxtiyorova Umida Ulug'bek qizi<sup>1</sup>

*Bukhara State University*

### KEYWORDS

Market relations, students, economic knowledge, practical skills, communicative abilities, economic reforms, Uzbek model

### ABSTRACT

This article is dedicated to analyzing strategies to adapt students to market relations. The study explored the role of economic knowledge, practical skills, and communicative skills in adapting students to a market economy. The study concluded that while the majority of students have theoretical knowledge, the lack of practical experience and communication skills prevents them from successfully operating in market conditions. The impact of state-implemented economic reforms and opportunities on students has also been analyzed. This article provides recommendations in the direction of developing practical skills of students and adapting them to market conditions.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.13765933](https://doi.org/10.5281/zenodo.13765933)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Researcher of Bukhara State University, Uzbekistan

# TALABALARNI BOZOR MUNOSABATLARIGA MOSLASHTIRISH STRATEGIYALARI

**KALIT SO'ZLAR/****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

bozor munosabatlari,  
talabalar, iqtisodiy bilimlar,  
amaliy ko'nikmalar,  
kommunikativ qobiliyatlar,  
iqtisodiy islohotlar, O'zbek  
modeli

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish strategiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda iqtisodiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va kommunikativ qobiliyatlarning talabalarning bozor iqtisodiyotiga moslashishidagi o'rni o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning aksariyati nazariy bilimlarga ega bo'lsa-da, amaliy tajriba va kommunikatsiya qobiliyatları yetishmasligi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va imkoniyatlarning talabalarga ta'siri ham tahlil qilingan. Ushbu maqolada talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va bozor sharoitlariga moslashtirish yo'nalishida tavsiyalar berilgan.

## **KIRISH**

Bozor munosabatlari o'zining dinamikasi va o'zgaruvchan sharoitlari bilan talabalar uchun yangi muhit yaratadi. Bu jarayonga samarali moslashish, nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladi. XXI asrda talabalarga bozor munosabatlariga moslashish uchun ko'nikmalarni rivojlantirish, ayniqsa, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va "O'zbek modeli" asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni yanada dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur maqola talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish strategiyalarini tahlil qiladi va ularning bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan metodlarni o'rganadi.

Bozor munosabatlariga moslashish jarayoni, ayniqsa, O'zbekistonda davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston o'ziga xos bo'lgan islohotlar va rivojlanish yo'lini tanlab, "O'zbek modeli"ni ishlab chiqdi. Ushbu model mamlakat iqtisodiyotini barqaror va samarali o'sishiga turtki berib, aholining farovonligini oshirishni maqsad qilib qo'ygan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabalarga bu islohotlarni tushunish va ularga moslashish uchun maxsus ko'nikmalar kerak bo'ladi. Maqolada bozor munosabatlarining talabalarga ta'siri, ularga moslashish imkoniyatlari va strategiyalari haqida batafsil tahlil o'tkaziladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirishda iqtisodiy islohotlarning o'rni katta. Akmaljonov (2023) o'zining "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li hamda taraqqiyotning 'O'zbek modeli'" nomli tadqiqotida bozor iqtisodiyoti jarayonlarining o'ziga xos jihatlarini chuqr tahlil qilgan. Akmaljonovning tadqiqotlari O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari bilan tanishtiradi. Unga ko'ra, "O'zbek modeli"

bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va talabalarni yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashishlari uchun yo'l ochdi. Ushbu modelning asosiy afzalliklaridan biri, davlatning iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalaridir (Akmaljonov, 2023).

Shuningdek, Abdullayev (2024) o'zining "Bozor munosabatlarida nutqiy aktning bosqichlari" ishida bozor munosabatlaridagi kommunikatsiyaning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli moslashish jarayoni nafaqat iqtisodiy bilimlarga, balki kommunikatsiya ko'nikmalariga ham bog'liqdir. Abdullayevning ta'kidlashicha, bozor munosabatlarida muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri bu nutqiy aktni to'g'ri va samarali amalga oshirishdan iborat (Abdullayev, 2024).


## METODLAR

Ushbu tadqiqotda talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish strategiyalarini aniqlash uchun aralash usuldan foydalanildi. Birinchi bosqichda, talabalarning bozor iqtisodiyotiga moslashish qobiliyatini aniqlash maqsadida so'rovnama o'tkazildi. So'rovnomada 300 nafar talaba ishtirok etdi va ular iqtisodiy bilimlar, kommunikativ ko'nikmalar hamda amaliy tajribalarni baholashdi. Ikkinci bosqichda, sifatli tadqiqot uchun 20 nafar talaba bilan yarim strukturaviy intervyyu o'tkazildi. Intervyularda talabalar bozor munosabatlariga qanday moslashayotganlari, duch kelayotgan qiyinchiliklari va zarur ko'nikmalar haqida o'z fikrlarini bildirib o'tdilar.

Barcha ma'lumotlar statistik va tematik tahlil usullari yordamida qayta ishlangan. So'rovnama natijalari kvantitativ tahlil qilindi, intervyyu natijalari esa sifatli tahlil asosida o'rganildi. Ushbu metodologiya talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirishda iqtisodiy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish strategiyalarini samarali aniqlash imkonini berdi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirishda iqtisodiy bilimlar, kommunikativ ko'nikmalar va amaliy tajriba yetakchi rol o'ynaydi. So'rovnama natijalari shuni ko'rsatdiki, 300 talabaning 70% dan ko'prog'i iqtisodiy bilimlarga ega ekanligini, lekin faqat 40% talabalar bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirganligini ta'kidlashdi. Qolgan 60% esa amaliy bilim yetishmasligi sababli bozor munosabatlariga to'laqonli moslasha olmasliklarini bildirishdi (1-diagrammaga qarang).

**1-diagramma. Talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish holati**

Intervyu natijalariga ko'ra, talabalar iqtisodiy bilimlar asosida amaliy tajriba yetishmasligini asosiy muammo sifatida ko'rsatdilar. Ko'pchilik intervyu ishtirokchilari, ya'ni 20 nafar talabaning 75%i ishbilarmonlik muhitida kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini qayd etdi. Talabalar bozor munosabatlarida samarali muloqot qilish, shartnomalarni tuzish va muzokaralarda qatnashish qiyinligini bildirishdi.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish murakkab jarayon bo'lib, iqtisodiy bilimlar, amaliy tajriba va kommunikativ ko'nikmalar kabi elementlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning aksariyati iqtisodiy bilimlarga ega bo'lislari qaramay, amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi ularning bozor munosabatlariga to'liq moslashishiga to'sqinlik qilayotganini ta'kidladilar. Bu holat iqtisodiy bilimlar nazariy jihatdan muhim bo'lsa-da, talabalarning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirmasdan muvaffaqiyatli ish olib borishlari qiyin ekanligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot davomida shuningdek, talabalar tomonidan iqtisodiy o'zgarishlarni tushunishda davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlarning ahamiyati ham o'rGANildi. So'rovnama natijalariga ko'ra, talabalar orasida 65% "O'zbek modeli" asosidagi islohotlar va davlat ko'magini ijobiy baholashdi. Ushbu talabalar davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlar ularning bozor munosabatlariga moslashishini osonlashtirganini ta'kidladilar. Biroq, qariyb 35% talabalar iqtisodiy islohotlar natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelganini bildirgan. Talabalarning bozor munosabatlariga samarali moslashishi uchun iqtisodiy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

### MUHOKAMA

Ko'plab tadqiqotchilar iqtisodiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratib kelmoqda. Abdullayev (2024) o'z tadqiqotida bozor munosabatlarida muvaffaqiyatga erishishning asosi to'g'ri kommunikatsiya ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotimizda ham talabalar kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishda muammolarga duch kelayotganliklarini bildirganlar. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida talab qilinadigan ishbilarmonlik muloqoti, muzokaralar olib borish va shartnoma tuzish kabi

ko'nikmalarining talabalar orasida kam rivojlanganligi aniqlangan. Kommunikativ ko'nikmalarining bozor munosabatlari o'rni katta. Talabalar bozor sharoitlarida nafaqat bilimlarni, balki ushbu bilimlarni samarali taqdim etish, o'z fikrini tushunarli ifodalash va boshqa tomonlar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishlari kerak. Shuni alohida qayd etish kerakki, talabalar bozor iqtisodiyotida samarali faoliyat yuritish uchun muhim bo'lgan amaliy va kommunikatsiya ko'nikmalarini ta'minlash maqsadida turli trening va amaliyotlarda ishtirok etishi muhim. Bozor iqtisodiyotiga moslashish jarayonida davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Akmaljonov (2023) ta'kidlaganidek, "O'zbek modeli" asosida amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiy jarayonlarga davlat ishtirokini ta'minlab, talabalar uchun ham ma'lum darajada qo'llab-quvvatlash vazifasini bajargan.

Bugungi kunda raqobatbardosh bozor munosabatlari talabalarga tegishli bilim va ko'nikmalarini egallashni talab qiladi. Ularni muvaffaqiyatli bozorga moslashtirish uchun quyidagi strategiyani tavsiya etamiz (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Talabalarni bozorga moslashtirish strategiyalari**

## Ushbu strategiyalar mazmunini quyidagi jadvalda izohlab tahlil qilish

Nº	Strategiya lar	Metod va vositalar	Mazmuni
1	Amaliy bilim va ko'nikmalarни rivojlantirish	Amaliy mashg'ulotlar	darslarida olingan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash. Bu ishlab chiqarish, loyihalash, tadqiqot, muhokama va boshqalar orqali amalga oshiriladi
		Stajirovkalar	ish joylarida amaliy tajriba to'plash imkoniyatini yaratib berish
		Loyihalar	talabalarga real hayot muammolarini hal qilish uchun loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini yaratish
		Moliyaviy savodxonlik	talabalarga o'z byudjetlarini rejalshtirish, pulni boshqarish va investitsiyalarni amalga oshirishni o'rgatish
		Kommunikatsiya va prezentatsiya ko'nikmalarini	talabalarga o'z g'oyalarini aniq va samarali tarzda bayon qilishni o'rgatish.
2	Innovatsiya va kreativlikni rag'batlantirish	Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish	talabalarni tanqidiy fikrlashga, turli xil yechimlarni topishga va o'z g'oyalarini himoya qilishga undash
		Ijodkorlikni rivojlantirish	talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun turli xil san'at, musiqa, adabiyot va boshqa ijodiy faoliyat turlariga jalg qilish
		Texnologiya va raqamli bilim	talabalarga texnologiya va raqamli vositalarni ishlashishni o'rgatish
		Globallashuvga moslashish	talabalarni boshqa madaniyatlar va tillar bilan tanishtirish va ularga global miqyosda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
3	Ishga joylashishni qo'llab-quvvatlash	Karyera maslahatlari	talabalarning o'zlariga mos kasblarni tanlashda ularga yordam berish
		Ishga joylashish treninglar	talabalarni ishga joylashish jarayoniga tayyorlash
		Resurslarni taqdim etish	talabalarga ishga joylashish bilan bog'liq bo'lgan kerakli resurslarni taqdim etish (masalan, ish bozorlari, internet manbalari va boshqalar).
		Ishga joylashishda qo'llab-quvvatlash	talabalarning ishga joylashish jarayonida ularga yordam berish

4	Muvaffaqiyatlari bozor munosabatlariga ega bo'lgan mutaxassislar bilan aloqalar	Mehmon ma'ruzachilar	bozor munosabatlari sohasida muvaffaqiyatli bo'lgan mutaxassislarni talabalar bilan uchrashuvga taklif qilish.
		Mentorlik dasturlari	talabalarga o'z sohalarida tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratib berish
		Industry-university hamkorligi	bozor munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.
5	Doimiy o'qishni rag'batlantirish	Yangi texnologiyalar va bozor tendentsiyalari	talabalarni yangi texnologiyalar va bozor tendentsiyalari haqida doimiy ravishda xabardor bo'lishga undash
		Doimiy o'qishga rag'batlantirish	talabalarni kasbiy rivojlanishga va doimiy o'qishga jalb qilish

Ushbu strategiya talabalarni bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli moslashtirishga yordam beradi va ularni raqobatbardosh ish bozorida o'z o'rnini topishga tayyorlaydi. Talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish - bu bugungi raqobatli dunyoda ularning muvaffaqiyati uchun juda muhim. Bu ularga bozor talablariga moslashish, muvaffaqiyatli martaba qurish va jamiyatda faol a'zo bo'lish imkonini beradi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarni bozor munosabatlariga moslashtirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali ekanligi ko'rsatildi. Iqtisodiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va kommunikativ qobiliyatlarning uyg'unligi talabalarning bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyati iqtisodiy bilimlarga ega bo'lsa-da, ularning amaliy va kommunikatsiya ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli, bozor munosabatlariga moslashish uchun talabalar amaliy tajriba olishga, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga va bozor sharoitlarini tushunishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy islohotlar va imkoniyatlar talabalarning bozor iqtisodiyotiga moslashishida muhim o'rinn tutadi. "O'zbek modeli" asosida amalga oshirilgan islohotlar talabalarga bozor munosabatlarini yaxshiroq tushunishga yordam bergan bo'lsa-da, hali ham ayrim qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun talabalarga amaliy treninglar, malaka oshirish dasturlari va iqtisodiy islohotlar haqida yanada chuqurroq bilimlar berilishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akmaljonov, A. (2023). O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISHNING O'ZIGA XOS YO'LI HAMDA TARAQQIYOTNING "O'ZBEK MODELI". *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 865-867.
2. Abdullayev, B. (2024). BOZOR MUNOSABATLARIDA NUTQIY AKTNING BOSQICHLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(2), 86-90.

3. Judson, K. M., Aurand, T. W., & Karlovsky, R. W. (2007). APPLYING RELATIONSHIP MARKETING PRINCIPLES IN THE UNIVERSITY SETTING: AN ADAPTATION OF THE EXCHANGE RELATIONSHIP TYPOLOGY. *Marketing Management Journal*, 17(1).
4. Schmidt, S. O., Tyler, K., & Brennan, R. (2007). Adaptation in inter-firm relationships: classification, motivation, calculation. *Journal of Services Marketing*, 21(7), 530-537.
5. Levidow, L. (2002). Marketizing higher education: Neoliberal strategies and counter-strategies.